

МУАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

Karimjonov A. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asosida boshlang‘ich ta‘lim tizimini takomillashtirish davr talabi	308
Matupayeva Sh. Z. Inklyuziv ta‘limning imkoniyati cheklangan bolalar uchun ijtimoiy ahamiyati	312
Ochilov F. I. Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rgatish imkoniyatlari	319
Jabborova O., Sapparbayeva D. Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi diagnostikasi	327
Sultanov T. M. Ilk boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasining muhim jihatlari va izohi	335
Maxmudova D. M., Mirxalilova N. A. Funktsional savodxonlik tushunchasi va uni shakllantirish usullari	340
Ochilov F. I., Ashurova F. S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy-ilmiy bilimlar hamda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish usullari	347
Hikmatov I. M., Ochilov F. I. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari	355
Rustamova N. X. “Boshlang‘ich ta‘limda yosh fiziologiyasi va gigiyenasi” fanining ahamiyati	364
Usmonova Q. S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tankidiy fiklashni shakllantirishda pedagogik – psixologik integratsiya va uzluksizlik	370
Karshiyeva D. E. Boshlang‘ich ta‘lim sotsiologiyasi mazmuni	376
Abdurashidov A. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasining dolzarb muammolari	382
Назирова Г. М. Ривожлантирувчи марказ: Халқ қўшиқлари ва ўйинлари болаларда миллий ғурур ҳиссини тарбиялаш воситаси сифатида	392
Эсонова М. А. Практическая деятельность детей в дошкольном образовательном учреждении	402
Арсланова Г. Дж., Панкина М. С. Воспитание национальных и общечеловеческих ценностей у младших школьников	409
Арсланова Г. Дж., Сытина Н. В. Инклюзивное обучение в начальном образовании	414

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХӘМ СПОРТ

Alimardonov A. N. “Bolalar sportini rivojlantirishda milliy o‘yinlarining ahamiyati”	419
Alimov Q. A., Daminov I. A. Sog‘lom turmush tarzinining tarixiy rivojlanishi va uning mohiyati	425
Toshbayev X. Y. Maktabdan tashqari jismoniy tarbiya va sport ishlarini amalga oshirishning takomillashtirish yo‘llari	430
Jo‘rayeva S. B. Kurashchi qizlarning trenirovka jarayonida texnik tayyorgarligini takomillashtirish yo‘llari	434
Mengliboyeva O. A. Халқ педагогикасида болаларнинг ўйини ва унинг тарбиявий аҳамияти	438
Toshboev B. SH. Sport tibbiyotida qo‘llaniladigan tibbiy nazorat usullari	443
Alimov Q. A., Xo‘jayev O‘. X. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chaqqonlik sifatlarini tarbiyalashda muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi	446
Xo‘jayev A. Q. Kuchli tayyorgarlik vositalaridan foydalangan holda yosh erkin kurashchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	451
Payg‘amova S. Qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini rejalashtirish	455
G‘afforova D. B. Gandbolchilarning hujum va himoyadagi texnik usullarini rivojlantirish metodikasi	459
Худайберганов О. К. Педагогические аспекты проблемы ценностного отношения к физической подготовке у курсантов и слушателей высших учебных заведений структуры МВД Республики Узбекистан	463
Ашуров Б. Ш. Стритбол в Республике Узбекистан	469



BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINI MA‘NAVIY-MA‘RIFIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING INNOVATION TEXNOLOGIYALARI

Hikmatov I. M.

*TerDPI “Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim)”
yo‘nalishi 2-kurs magistranti*

Ochilov F. I.

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ChDPU “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: ma’naviyat, ma’rifat, ma’naviyat va ma’rifat uyg‘unligi, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat, kasbiy kompetensiya, bo‘lajak boshlang‘ich sinfi o‘qituvchisi, innovatsion texnologiyalar.

Ключевые слова: духовность, просвещение, гармония духовности и просвещения, духовно-просветительская деятельность, профессиональная компетентность, будущий учитель начальных классов, инновационные технологии.

Key words: spirituality, education, harmony of spirituality and education, spiritual and educational activities, professional competence, future primary school teacher, innovative technologies.

Yangilangan ta’lim tizimini joriy etishda har bir bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatini shakllantirish va tarbiyalash, ularni pedagogik faoliyatda izchil qo‘llay olish mahoratiga ega bo‘lishini ta’minlash bugungi kunning muhim talabidir. Erkin, huquqiy demokratik jamiyat qurishda ta’lim-tarbiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shunday ekan, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlash zaminida yosh avlod tarbiyasi, komil inson taqdiri turibdi. Zero, ulug‘ allomamiz Abdulla Avloniy ta’kidlaganlaridek “Tarbiya – biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir. Jamiyatimizning ertangi taqdiri farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog‘liq” [3].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinfi o‘qituvchilarini ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlash jumlasidagi ikki so‘zdan iborat ma’naviy-ma’rifiy so‘zga e’tibor qaratsak: Ma’naviyat – (arabcha – ma’nolar majmui) kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui



hamda Ma'rifat – (arabcha – bilmoq) ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g'oyalar majmui asosida kishilarning ong – bilimini, madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat [6; 114-b.]. Endi bu ikki so'zning uyg'unligini ko'rib chiqamiz.

Ma'naviyatning ma'rifiy jarayonlar bilan uzviy aloqadorligi inson ma'naviyatining u tomonidan o'zlashtiriladigan bilim, amaliy tajriba va ko'nikmalar hosil qilinishi, shaxsning ilmiy-ijodiy kamoloti bilan bog'liqligi; muayyan shaxs, ijtimoiy guruh, jamiyat va davlat hayotiga xos faoliyatda, urf-odat va an'analari, ta'lim-tarbiya tizimida ma'naviy omillarning bilim va tafakkur rivoji bilan mushtarakligidir. Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi o'zbek xalqining ko'p ming yillik tarixida doimo uning eng kuchli o'ziga xos xususiyati bo'lib kelgan. Qadim-qadimdan O'zbekiston sivilizatsiyasi asosini ma'naviyat, ma'rifat va axloq qadriyatlari tashkil etgan va bu tushunchalarni bir-biridan alohida tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi jamiyat, xalq kamolotining bosh omillaridan biridir. Ma'rifat ham, o'z navbatida madaniyat, ma'naviyat tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. Ma'rifat – ma'naviyatga olib keladigan yo'l, uni shakllantiruvchi vositadir. Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi tarixi jamiyat tarixining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanib, u ma'naviy qaramlikni bartaraf etuvchi kuch, insonga aqliy, ruhiy quvvat baxsh etadigan omil sifatida namoyon bo'ladi, kishilarni jaholat changalidan qutqaradi, buzuc, yomon, gunoh ishlardan qaytaradi, ezgu xulq va odob egasi bo'lishga ko'maklashadi. Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligiga erishgan inson o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashadi.

Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi yo'lida har kim o'z iqtidori, iste'dodi, qobiliyati, intilishiga yarasha ma'lum darajaga erishadi. Ma'naviy kamolot jamiyatda faqat tor doirada qolib ketsa, ma'naviy-ma'rifiy daraja umum ijtimoiy, ijobiy, ilg'or harakatlarga chorlovchi o'zgarishlarga olib kelmasa, hayot uyg'unligi, muvozanati buziladi.

Shu bois ma'rifat tarqatish yo'li bilan siyosat va iqtisod sohalarida umum ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga erishish ma'naviyat ahlining mas'uliyati, ma'naviyat, ma'rifatni targ'ib-tashviq etish har bir ziyolining vijdon ishidir. Chinakam ma'rifatli insonlargina o'z yurtini taraqqiy toptirish, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga, dunyoda o'ziga munosib o'rin egallashga qodir bo'ladi. Bu esa ustoz va murabbiylar, ota-onalar, butun jamiyat zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. [7; 284-b.]



Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi ta’lim vazirliklarining hujjatlariga asosan hozirgi zamon ta’lim maqsadlari aniq faoliyat sohasi uchun tor doiradagi mutaxassislarni tayyorlash emas, balki har bir insonning shaxsiyatini rivojlantirish, uning kasbiy kompetensiyasini oshirish, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlashdan iborat. Hozirgi vaqtga kelib, pedagogik faoliyatning turli sohalari uchun mutaxassislar tayyorlash jarayonining ko‘p qirrali jihatlarini ochib berishga bag‘ishlangan jiddiy tadqiqotlar o‘tkazilgan. Kasbiy tarbiyalanganlik, ma’naviy-ma’rifiy faollik, ta’lim-tarbiya masalalarining uzoq tarixiy ildizlari Sharq mutafakkirlari Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy asarlarida o‘z aksini topgan. Tarixiy meroslarimizda kasbga yo‘naltirilganlik g‘oyalarining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va muhimligini, shuningdek, yoshlarga kasbiy ta’lim berish, ularni ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlash, “ustoz shogirdlik” tamoyili asosida tarbiyalash masalalari haqida ko‘plab fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Xususan, Abu Nasr Forobiy o‘zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida jamiyatning vujudga kelish sabablarini, inson ma’naviyatining shakllanishi, insoniylik, adolatparvarlik, taraqqiyot, buyuk jamiyat, komil inson kabi mavzularni ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga harakat qilgan. Forobiy axloqiy fazilatlar deganda bilimdonlik, donolik, va mulohazali bo‘lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko‘pchilik manfaatini yuqori qo‘yish, haqiqat, ma’naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik kabi xislatlarni tushunadi. Ammo bu xislatlarning eng muhimi har bir insonning bilimli, ma’naviyatli, ma’rifatli bo‘lishidir. Shuning uchun ham Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog‘liq holda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi [4]. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me’yorlari ifodasi sifatidagina emas, balki kishilarning aqliy faoliyatining natijasi sifatida ham talqin etilganligini ko‘ramiz. Shu kabi fikrlarni Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Beruniyning ma’naviy-ma’rifiy qarashlari bilan bog‘liq ta’limotida mehnat, odob-axloq, ta’lim-tarbiya, kasb-hunar, ilm-ma’rifat uzviy mushtaraklikda, bir butunlikda tahlil etilgan. Beruniyning ma’naviy-ma’rifiy ta’limotida ikkiyuzlamachilik, yolg‘onchilik, tuhmat, qo‘pollik, o‘g‘rilik, bir-birining payiga tushish, xudbinlik, singari yomon xulqlar toifasiga kiritiladi. Rostlik, odillik, adolat, bular Beruniy fikricha, yuksak ma’naviyat, go‘zal odob-axloq belgisidir. “O‘z zararining hisobiga bo‘lsa-da, rost gapir, haqiqatdan yuz o‘girma, har bir narsaga odilona va xolisona yondash”, deb ta’lim beradi va o‘zi mazkur g‘oya va ta’limotlarga bir umr sodiqlikning ibrat-namunasiga aylandi.



G'arb mutafakkirlari ham ma'naviy-ma'rifiy tarbiya borasida o'zlarining fikrlarini keltirib o'tganlar. Jumladan, Ushinskiy "Tarbiyaning asosiy vazifasi ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ta'sir etishdan iboratdir. Bu aqlni o'stirish, uni bilimlar bilan to'ldirishdan ko'ra muhimdir" deb izohlagan. Ma'naviy-ma'rifiy axloqiy tarbiya maqsadlari va vositalarini, K.D.Ushinskiy kishi kamolga yetgan bo'lishi, uning jismoniy, aqliy hamda axloqiy jihatdan o'sishi bir-biriga mos bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Shuning uchun u tarbiyani garmonik (har tomondan bir-biriga moslab) o'sgan shaxsning tarkib topishida ma'lum maqsadga qaratilgan ongli jarayon deb ta'riflaydi. [8]

Zamondoshlarimiz E.G'oziyev, B.Qodirov, M.Davletshin, V.Karimova, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn va boshqalar o'z ilmiy ishlarida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiya, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni shakllantirish, ularni kasbga yo'naltirishning psixologik asoslari haqida e'tiborga molik fikrlarni ilgari surishgan bo'lishsa, M.Ochilov, U.Mahkamov, M.Quronov, F.Yuzlikayev, J.Hasanboyov, Yo.Haydarov, O'.Tolipov, N.Sayidahmedov, N.Nishonaliyev, E.Choriyev, N.Shodiyevlarning ilmiy-tadqiqotlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy, ma'naviy-ma'rifiy bilim va malakalarni shakllantirish, malakali kadrlar tayyorlash masalasi ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil etilgan. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotlarda shuni ham qayd etish kerakki, kasbiy kompetensiyani shakllantirish masalalari asosan maktab o'qituvchisini yoki oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisini tayyorlash va malakasini oshirish doirasida qaraladi. Shu munosabat bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlash chog'idayoq talab qilinadigan kasbiy kompetensiyasi saviyasini ta'minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy izlash dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda.

Bunda bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini, ya'ni talabalarni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga, o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik texnologiyalariga asoslangan kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan quyidagi omillarni qayd etish mumkin:

- bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini tarbiyalashda ularni innovatsion texnologiyalarni amaliyotda qo'llashga tayyorlashning ilmiy asoslangan tizimi mavjud emasligi;
- fan, texnika va texnologiya taraqqiyotining bugungi darajasi bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini ta'minlash jarayoni orasida nomuvofiqlikning mavjudligi;



- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish borasida to‘plangan ilg‘or tajribalarning amaliyotga yetarlicha joriy etilmaganligi;
- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga tayyorlashning mustaqil ta‘limini tashkil etish imkonini beruvchi o‘quv-metodik majmualarning yetarlicha yaratilmaganligi;
- oliy ta‘lim muassasasi tomonidan tayyorlash amalga oshiriladigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy kompetensiyasining yuqori darajada emasligi.

Shu sababli, zamonaviy o‘quv texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish negizida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish hozirgi kunda dolzarb vazifalardandir.

Talabalarni ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiyalash maqsadida pedagogikaning quyidagi usullaridan keng foydalanish mumkin: ma‘naviy-ma‘rifiy mavzudagi suhbatlar; uchrashuvlar va bahs-munozaralar uyushtirish; tanlovlar va tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazish.

O‘rganilgan manbalar [5] asosida tadqiqotimizning tajriba-sinov ishlari davrida ma‘naviy-ma‘rifiy masalalarga qaratilgan “Talabaniing muomala madaniyati”; “Vatan tuyg‘usi – muqaddas tuyg‘u”; “Kitoblar – bilim va ma‘naviyat manbai”; “Talabalar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish”; “Mustaqil O‘zbekiston jahon nigohida” kabi mavzularda talabalar bilan suhbatlar olib borildi. Suhbatlar oliy ta‘lim muassasalarida tashkil etiladigan murabbiylik soatlari hamda darsdan tashqari mashg‘ulotlar davomida guruh rahbarlari, yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan muovnlari bilan hamkorlikda amalga oshirildi.

Suhbatlar davomida mavzuni yorituvchi multimedia vositalaridan foydalanildi. Talabalarni ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiyalashda jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan yoshi ulug‘ shaxslar, o‘z kasbining yetuk mutaxassislari, tajribali pedagoglar bilan uchrashishuvlar tashkil etish ham ijobiy samara berdi. Bu borada “14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” mavzusida O‘zbekiston qurolli kuchlarining yetuk mutaxassislari bilan uchrashuv; “1-oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni”; “21-oktyabr – o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun”ga oid uchrashuvlar tashkil etildi. Uchrashuvlarni o‘tkazishga talabalar alohida tayyorgarlik ko‘rib, mavzu bo‘yicha sohani yorituvchi slaydlar, videoroliklar tayyorladilar.



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bo'lmish talaba-yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy kamolotini ta'minlashda munozaralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy-ma'rifiy mavzulardagi munozaralar talabalarda muayyan holat, hodisalarga nisbatan to'g'ri baho berishga, bu borada fikr yuritishga o'rgatish hamda e'tiqodni shakllantirishga xizmat qiladi. Munozara o'y-fikrlarni tartibga soladi, talabalarni mustaqil fikrlashga, bahs yuritishni tashkil etishga, o'rtog'ini tinglashga, o'z fikrini ilgari surish va uni obrazli tarzda himoya qilishga, ayni chog'da o'z xatolarini tan olishga o'rgatadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida "Mustaqillik va ta'lim-tarbiya"; "Yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi"; "Yoshlarning kitobxonlikka munosabati"; "Zamonaviy urf-odatlarida madaniyat va ma'naviyat" mavzularida bahs-munozaralar olib borildi.

Talabalarni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bunda tarixiy shaxslarning tavallud kunlari, bayramlar va muhim sanalar hamda ma'naviy-ma'rifiy mavzularga bag'ishlab "Konstitutsiya – baxtimiz qomusi!", "Navro'z – yasharish bayrami!", "Ona – ulug' zot!", "Xotira muqaddas!" mavzularida tarbiyaviy tadbirlar tashkil etildi. Ushbu tarbiyaviy tadbirlarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bo'lmish talabalarning o'zlari ishtirokchi sifatida qatnashdilar. Talabalar tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish bilan o'zlariga to'g'ri xulosa chiqarib, ularning ma'naviyati yuksaldi.

Talabalarni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy mavzudagi suhbatlar, uchrashuvlar va bahs-munozaralar, tanlovlar va tarbiyaviy tadbirlar uyushtirish orqali ularda ijobiy ma'naviy-ma'rifiy munosabatlar rivojlantirilganligi, ma'naviy-ma'rifiy fazilatlar yuksaltirilganligi olib borilgan so'rovnomalar asosida aniqlanib, qayd etib borildi. Olib borilgan ma'naviy-ma'rifiy tarbiya natijasida talabalarda insonparvarlik, erkarparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, tinchliksevarlik, adolatlilik, halollik, rostgo'ylik, xushmuomalalik, odoblilik, kamtarlik, bosiqlik, kamsuqumlik, shirinsuxanlik kabi bir qancha ijobiy fazilatlar rivojlantirildi.

Barkamol avlod shaxsida ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida milliy an'analarni chuqur tahlil qilish talabalarni xalqimizning ma'naviy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu esa talabalarda mustaqil O'zbekistoning istiqlolini mustahkamlash va rivojlantirish, jamiyatda barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni ta'minlash tuyg'ularini tarkib toptiradi, ularning ijtimoiy faoliyatini boyitadi. Shuningdek, kasb faoliyati, mustaqillik tafakkuri ko'nikmalarini egallashi uchun zarur bilimlar berish bilan birga, ma'naviy hayot, shaxs va jamiyat ehtiyojlari, ta'limning



insonparvarlik ruhi, milliy istiqloq g'oyasi, ma'naviyat kabi yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Albatta, bu vazifalarni amalga oshirishda oliy o'quv yurtlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va uni boshqarish muhim ahamiyatga ega. Chunki talabalarda axloqiy ong va tafakkurni shakllantirish ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida amalga oshiriladi. Ikkinchidan, oliy o'quv yurtida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuqori darajada tashkil etish jamiyat taraqqiyoti, mamlakatning barqaror rivojlanishining muhim sharti va kafolatidir. O'sib kelayotgan yosh avlod ongida ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni rivojlantirmay turib jamiyatda yuksak tarq qiyotga erishib bo'lmaydi. Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlash jarayonida quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur hisoblanadi:

- ezigulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish; [1]
- ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlarida tarbiyaviy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan videorolik, badiiy film hamda shiorlarni tayyorlash va amaliyotga tatbiq etish;
- ta'lim muassasalarida sportni qadriyat sifatida rivojlantirish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish; [2]
- mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-ma'rifiy negizlarini talabalar ongiga singdirish, O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarini talabalar o'rtasida keng targ'ib etish;
- oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, talabalar bilan olib boriladigan tadbirlarning ta'sirchanligini oshirish;
- oliy o'quv yurtlari jamoalarida barqaror ma'naviy-ma'rifiy muhitni yaratish, o'qituvchilar bilan talabalar hamkorligiga erishish;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yaxshilashga qaratilgan tadbirlar tayyorlash va ularni o'tkazishda talabalarining imkoniyatlarini, qiziqishlari va jamoat ishidagi malakalarini hisobga olish;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarining aqliy, hissiy va ifodaviy tomonlariga ta'sir etish, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga doir bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash;
- ongli intizomni rivojlantirish, fan va madaniyatga bo'lgan qiziqishni tarbiyalash, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida badiiy asarlar ro'yxatini tavsiya etish;



- talabalar uchun ustoz va shogird qoidalarini joriy qilish, talabalarning ijtimoiy foydali, unumli mehnatini tashkil etish;
- sanitariya-gigiyena ishlarini yo'lga qo'yish, guruhlarda talabalar kun tartibini belgilash;
- talabalarning mustaqil ta'lim olishi, o'z ustida ishlashi, ma'naviy aqliy darajasi, umumiy saviyasi, qiziqishlarini rivojlantirish;
- milliy istiqlol g'oyasini talabalar orasida keng targ'ib qilish, unda ommaviy, madaniy-ma'rifiy ishlarning shakl va vositalaridan samarali foydalanish;
- barkamol shaxsni shakllantirishda oliy ta'lim, oila va keng jamoatchilikning hamkorligiga erishish va boshqalar.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, talabalarni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan barcha talablarga javob beradigan, xalqimizning milliy an'alariga sadoqatli, jamiyatimizning har tomonlama mukammal fuqarosi darajasida tarbiyalash o'qituvchining bilimiga, mahoratiga bog'liq. Shu bilan birga, albatta, bunday kadrlarni tayyorlashda yuqoridagi fikrlarimizga qo'shimcha tarzda quyidagilarni ham amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz:

Birinchidan, mutaxassislik fanlarini o'qitishda talabalarda ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni shakllantirish; bo'lajak kadrlarning kasbiy bilimi, mahorati va ko'nikmalarini, ma'naviyati va madaniyati, iqtisodiy va huquqiy bilimlarini oshirish uchun pedagogik vaziyatlar, testlar, mashqlar tayyorlash; "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun asosida o'qituvchilarning axloqiy fazilatlari haqidagi bilimlarini aniqlash metodikasini ishlab chiqish.

Ikkinchidan, pedagog kadrlar tayyorlashda o'qituvchi-professorlar: ma'naviyat va ma'rifatning shaxs kamolotidagi ahamiyati; O'rta Osiyo mutafakkirlarining ma'naviyat va ma'rifat haqidagi g'oyalari va ulardan shaxs kamolotida foydalanish; mustaqil O'zbekistonning milliy pedagogikasi mazmuni; "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning ta'lim mazmunini takomillashtirishdagi ahamiyati; Sh.M.Mirziyoyevning "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning asosiy poydevoridir" asarida berilgan ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning yo'l-yo'riqlari; ta'lim-tarbiya jarayonining ma'naviy-ma'rifiy bilimlar asosida amalga oshirilishi; ma'naviy-ma'rifiy ishlar asosida oliy ta'limni boshqarish va o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil etish orqali talaba bilimini oshirib borishi; milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishi; o'quv-tarbiya jarayonida ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlardan foydalanish shaxs ma'naviyatini shakllantirishning asosiy omili ekanligini his qilishi; o'zbek



xalqining madaniy va ma'naviy merosi, qadriyatlarining shaxs shakllanishiga ta'sirini anglab yetishi lozim.

Buning natijasida ta'lim islohotlarini ongli ravishda to'la o'zlashtirgan, ularni amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etadigan, zamon talablariga hozirjavob, kasb mahorati yuksak, ma'naviy-ma'rifiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan o'qituvchi kadrlar tarkibi shakllanadi. Talaba-yoshlarga ta'lim-tarbiya berish sifati yuqori darajaga ko'tariladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son Qarori. (www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabrda 558-son qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish Konsepsiyasi". (www.lex.uz)
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. To'rtinchi nashr. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 224 b.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.
5. Farsaxonova D.R., Esirgapova M.O'. Talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metod va vositalari / Journal of Innovation in Primary Education. Vol. 1, March – 2021. – Pp. 93-97. (<https://primedu.jpui.uz>)
6. Hasanboyov J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: "Fan", 2008. – 270 b.
7. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.
8. Ushinskiy K.D. Izbrannyye pedagogicheskiye sochineniya / Chelovek kak predmet vospitaniya. Opyt pedagogicheskoy antropologii (1861). – M.: Izd-vo Akademii nauk RSFSR, 1945. – S. 475.

РЕЗЮМЕ

Maqolada ma'naviyat va ma'rifat tushunchalari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bo'lmish talaba-yoshlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, ularni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari, metod va vositalari, bu borada Sharq va G'arb allomalarining pedagogik qarashlari atroflicha ko'rib chiqilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются понятия духовность и просвещение, формирование профессиональных навыков будущих учителей начальных классов, инновационные технологии, методы и средства подготовки их к духовно-просветительской деятельности, в связи с этим педагогические взгляды западных ученых тщательно пересматриваются мыслителями Востока и Запада.

SUMMARY

The article discusses the concepts of spirituality and enlightenment, the formation of professional skills of future primary school teachers, innovative technologies, methods and means of preparing them for spiritual and educational activities, in connection with this, the pedagogical views of Western scientists are carefully reviewed by thinkers of the East and West.